

**BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNING O'RNI VA
RO'LINI TAKOMILLASHTIRISH***Rizayev Nurbek Kadirovich**O'zbekiston Respublikasi bank-moliya
akademiyasi "Buxgalteriya hisobi
va audit" kafedrasi mudiri**Maxamadaliyev Boburbek Baxodir o'g'li**O'zbekiston Respublikasi bank-moliya
akademiyasi tinglovchisi**Tel: 94 277-88-98**Email: mbobur313@gmail.com*

Annotasiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, jumladan, moliya sohasida moliyaviy nazoratning mohiyati, ahamiyati va samarali moliyaviy nazoratni amalga oshirish orqali budget mablag'laridan tejamkorlik asosida foydalanish, budget mablag'larini rejali va maqsadli sarflarinishi masalalari o'rganilgan hamda budget tashkilotlarida moliyaviy nazoratining o'rni va ro'li, nazorati samarali tashkil etish va ularning tahlilini amalga oshirish, yo'llarini ko'rsatish borasida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: moliya, budget nazorati, moliyaviy nazorat, nazorat tashkilotlari, budget tashkilotlari, budget mablag'lari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются реформы, проводимые в нашей стране, в том числе сущность и значение финансового контроля в финансовой сфере, экономное использование бюджетных средств посредством осуществления эффективного финансового контроля, плановое и целевое расходование бюджетных средств, а также изучены вопросы финансового контроля в бюджетных организациях, представлены мнения о роли и роли эффективной организации контроля и их анализ с указанием путей.

Ключевые слова: финансы, бюджетный контроль, финансовый контроль, контролирующие организации, бюджетные организации, бюджетные средства.

Abstract: In this article, the reforms carried out in our country, including the nature and importance of financial control in the financial sector, the economical use of budget funds through the implementation of effective financial control, the planned and targeted spending of budget funds, and the issues of financial control in budget organizations are studied. Opinions on the role and role of effective organization of control and their analysis, showing the ways are presented.

Key words: finance, budget control, financial control, control organizations, budget organizations, budget funds.

KIRISH

Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida budget nazorati siyosatida olib borilayotgan islohotlar sharoitida budget tashkilotlarini budgetdan moliyalashtirishni qisqartirish uchun olib borilayotgan amaliy ishlar, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg`armalari ahamiyatining yuqori ekanligini ko`rsatib bermoqda. Moliyaviy nazorat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish ustidan davlat nazoratining tarkibiy elementi bo`lib hisoblanadi.

Nazorat iqtisodiy tizimning zarur elementi sifatida butun insoniyat sivilizatsiyasi bilan birga rivojlanadi, evolutsion taraqqiyot va inqilobiy to`fonlar jarayonida, jamiyat iqtisodiy formatsiyasi, siyosiy tizimi, davlat va xo`jalik boshqaruvi, qonun chiqaruvchi, ijroiya va sudlov hokimiyati organlari almashinuvi jarayonida o`zgarib boradi. Davlat moliyaviy nazorati - davlat boshqaruvining eng muhim vazifalaridan biri bo`lib, u qonuniylik, muvofiqlik va moliyaviy resurslarni hamda boshqa davlat mulkini boshqarish samaradorligining qabul qilingan qonunlar va standartlaridan chetga chiqishlarni nazoratni o`z ichiga oladi.

Hozirgi kunda davlat moliyaviy nazorati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida zamonaviy jahon andozalariga va talablariga mos keladigan moliya tizimi hamda bozor infratuzilmasi “Yangi O`zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi” talablariga mos ravishda shakllantirilmoqda, davlat moliya sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan qator qonunchilik tashabbuslari va ulardan kelib chiquvchi muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek - “Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o’sishning yuqori sur’atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budgeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo’lishini ta’minalash - eng muhim ustuvor vazifamizdir”¹.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Davlat budget tizimining dolzarb muammolaridan biri sifatida, mahalliy budgetlar barqarorligini ta’minalash umumiqtisodiy va moliyaviy omillarga bog’liq bo’lib, aksariyat iqtisodchilar moliyaviy omillar sifatida daromadlarni budget tizimi bo’g’inlari o’rtasida taqsimlash tizimini e’tirof etib o’tadilar.

Jumladan, A.Xayriddinov fikricha², har bir mahalliy ma’muriy hududdagi soliq tizimi tomonidan undirilishi lozim bo’lgan umum davlat soliqlari bo’yicha soliq summalarining ma’lum bir qismini bevosita mahalliy byudjetlarning ixtiyorlariga biriktirilgan daromadlar ko’rinishida qat’iy hissada va doimiy asosda qoldirilishi

1 Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza

2 Xayriddinov A.B. Mahalliy byudjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta’minalash yo’llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati. –T.: 2011. –b. 13.

oldindan belgilanib qo'yilishi kerakligini ta'kidlaydi. Bunda asosiy urg'u daromadlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida qayta taqsimlashning asosiy kombinatsion variantlaridan biri bo'lgan me'yoriy ajratmalar tizimini takomillashtirishga qaratilmoqda. Shuningdek, muallif bozor iqtisodiyotining talablaridan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligini ta'minlashda ularning biriktirilgan daromadlariga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi (A.B.Xayridinov). Umuman olganda fikrimizcha, me'yoriy ajratmalar va biriktirilgan daromadlarni takomillashtirish orqali mahalliy byudjetlarni daromad bazasini kengaytirish boshqa muqobil qarorlar orasida samarali usullardan biri hisoblanadi.

Bu borada A.X. Islamqulov, respublikamizda davlat byudjeti daromadlari barqarorligi, turli darajadagi byudjet daromadlari mutanosibligini ta'minlash maqsadida markaziy va mahalliy davlat hokimiyatlarining moliya-byudjet, byudjet-soliq sohalarida vakolatlarini aniq belgilab olish lozimligini ta'kidlaydi³. Bunda muallif byudjet tizimining bo'g'inlari o'rtasida daromad vakolatlari va xarajat majburiyatlarini optimal taqsimlash tizimini mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash gorizontida amalga oshirishni ilgari suradi.

Iqtisodchi olim U.D.Zaynutdinovning ta'kidlashicha, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlashning muhim yo'llaridan biri ma'muriy hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasiga qarab real tarzda tabaqlashtirish imkonini beradigan ob'ektiv mezonlar tizimiga o'tish hisoblanadi⁴.

Tadqiqot metodologiyasi:

Mazkur maqolada O'zbekistonda budget nazorati va budget tashkilotlarida moliyaviy nazoratni tubdan isloh etish borasida amalga oshirilayotgan keng – ko'lamli amaliy ishlar tahlil qilingan. Mazkur tahlil jarayonini yanada tushunarli va aniq bo'lishi uchun maqolada chizmalar va jadvallar usulidan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi:

Davlatni boshqarish funksiyasining muhim funksiyalaridan biri bo'lgan moliyaviy nazorat davlat tuzilmasining ajralmas qismi hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanib borayotgan sharoitida moliyaviy nazoratning roli yanada oshadi. Bir tomonidan, moliyaviy nazorat moliyani boshqarishning yakuniy bosqichi hisoblanadi, boshqa tomonidan esa, uni samarali boshqarishning zaruriy sharti bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy nazorat moliyaviy resurslar harakatining hamma jarayonlarini o'z ichiga oladi, mablag'larni tashkil topish jarayonidan boshlab, har qanday faoliyatni

3 Islamkulov A.K. Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash masalalari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil. http://iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/43_A_Islamkulov.pdf

4 Zaynutdinova U.D. Hududlar mahalliy byudjet daromadlarini oshirish masalalari // O'zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishga bankmoliya tizimining samarali ta'sirini kuchaytirish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya tezislari to'plami. T.: Moliya, 2017. -b. 90.

boshlashdan to uning moliyaviy natijalarini aniqlashgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazorati rejasiga ko'ra amalga oshiriladi va davlat moliyaviy nazorat organining qarori asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxs davlat moliyaviy nazorat organi qarorining ko'chirma nusxasiga va xizmat guvohnomasiga ega bo'lishi kerak. Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda davlat moliyaviy nazorat organlarining mansabdor shaxslariga qo'yiladigan talablar vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari maxsus kasbiy bilimlarni talab etadigan masalalarni ko'rib chiqish uchun davlat boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlarning ekspertlari va mutaxassislarini jalg etishga haqli.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazorati Byudjet kodeksining 170-moddasiga muvofiq tasdiqlangan moliyaviy nazorat ob'ektlarini nazorat qilish rejasiga ko'ra yiliga ko'pi bilan bir marta amalga oshiriladi.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish muddati o'ttiz kalendar kundan oshmasligi lozim. Zarur hollarda yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish muddati davlat moliyaviy nazoratini tayinlagan tegishli davlat moliyaviy nazorat organining rahbari yoki u vakolat bergen shaxs tomonidan uzaytirilishi mumkin.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratining natijalari davlat moliyaviy nazorat organining mansabdor shaxsi tomonidan:

- tekshirish va taftish natijalari bo'yicha tuziladigan hujjat — dalolatnoma;
- davlat moliyaviy nazorati natijalarini umumlashtiruvchi hujjat — jamlanma dalolatnoma;
- o'rghanish va nazorat tartibida tekshirish natijalari bo'yicha tuziladigan hujjat — ma'lumotnoma yoki xulosa;
- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan davlat moliyaviy nazorati natijalari bo'yicha tuziladigan hujjat — hisobot tarzida rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatlar quyidagilar ko'rsatilgan holda rasmiylashtiriladi:

- rasmiylashtirilayotgan hujjatning turi;
- tekshirish o'tkazilgan joy, hujjat tuzilgan sana;
- davlat moliyaviy nazoratini o'tkazish uchun asos;
- davlat moliyaviy nazoratining turi va uni o'tkazish davri;
- davlat moliyaviy nazoratini o'tkazgan mansabdor shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatga davlat moliyaviy nazoratini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qilgan hujjatlarning

ko'chirma nusxalari, davlat moliyaviy nazorati doirasida harakatlarni bajarish to'g'risidagi bayonnomalar, inventarizatsiya dalolatnomalari, jalb etilgan ekspertlar va mutaxassislarining xulosalari, nazoratni o'tkazish jarayonida Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning so'roviga ko'ra olingan materiallar, shuningdek nazorat doirasida bajarilgan harakatlarni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar qo'shib qo'yilishi lozim.

Davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatga qonun hujjatlari bilan, hujjatlar bilan yoki moliyaviy nazorat ob'ekti faoliyatining davlat moliyaviy nazorati jarayonida amalga oshirilgan tartib-taomillar natijalari bilan tasdiqlanmagan turli xil xulosalarni, taxminlarni va faktlarni, tergov materiallaridan ma'lumotlarni va moliyaviy nazorat ob'ekti mansabdor shaxslari tergov organlariga bergen ko'rsatuvlarga havolalarni kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatda moliyaviy nazorat ob'ektining mansabdor va moddiy javobgar shaxslari harakatlariga huquqiy baho berilmasligi, shuningdek ularning qilmishlari, niyatları va maqsadlari tavsiflanmasligi lozim.

Davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatlarda bayon etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi, xolisligi va to'liqligi davlat moliyaviy nazorat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan ta'minlanadi.

Moliyaviy nazorat ob'ektining mansabdor shaxslari:

- davlat moliyaviy nazorati amalga oshirilishining maqsadi, boshlanish sanasi va davomiyligini bilishga;

- davlat moliyaviy nazorat organlarining tekshiruvchi mansabdor shaxslaridan mazkur organ rahbarining qarorini va yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish huquqini beruvchi bir martalik guvohnomani, shuningdek shaxsiy guvohnomani talab qilishga;

- davlat moliyaviy nazoratini o'tkazish uchun asosga ega bo'limgan shaxslarni davlat moliyaviy nazoratiga qo'ymaslikka;

- davlat moliyaviy nazorati natijalari yuzasidan shikoyat qilishga haqlidir.

Moliyaviy nazorat ob'ektining mansabdor shaxslari:

- davlat moliyaviy nazorat organining mansabdor shaxslari davlat moliyaviy nazoratini o'tkazishi uchun zarur sharoitlar yaratishi;

- davlat moliyaviy nazorat organi va uning mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek davlat moliyaviy nazorat organi mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga monelik qilmasligi;

- davlat moliyaviy nazoratini o'tkazish vaqtida davlat moliyaviy nazorat organining mansabdor shaxslariga mazkur nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishi hamda ularning ishonchliligi, xolisligi va to'liqligi uchun shaxsan javobgar bo'lishi;

- budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan holda foydalanilgan mablag'larning o'rni qoplanishini, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar tomonidan shartnomaga majburiyatlarini bajarilishini ta'minlashi shart.

Mamlakatimizda samarali moliyaviy nazorat tizimi yo'lga qo'yilganligi, byudjet mablag'laridan maqsadli, tejamli foydalanishni ta'minlash maqsadida davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy nazorat-taftish boshqarmalari tashkil etilganligiga qaramasdan, moliya organlari va byudjet muassasalari faoliyatida ba'zan byudjet mablag'larini noto'g'ri sarflash, noqonuniy xarajatlarni amalga oshirish, hamda byudjet mablag'larini o'zlashtirish holatlari barham topmayapti. Fikrimiz tasdig'i sifatida, byudjet tashkilotlarida amalga oshirilayotgan taftish va tekshirishlarda aniqlanayotgan quyidagi tizimli ravishdagi qoidabuzilishlar ko'rsatib o'tishimiz mumkin⁵:

- budjet muassasalari tomonidan xarajatlar smetasini rejalashtirishda amaldagi me'yoriy xujjatlar talablari chuqur o'rganilmaganligi natijasida budgetdan ortiqcha mablag' olish;

- umumta'lim muassasalarida tarifikatsiya jadvalini tuzishda vakant soatlarga yuqori toifali tarif razryadlari qo'llanilishi natijasidan budgetdan ortiqcha mablag' olish;

- turli sabablar bilan o'tilmagan dars soatlari hisobidan iqtisod bo'lgan mablag'larni o'z vaqtida (hisobot davri yakuni bilan) tegishli budgetga qaytarilmasligi;

- vakant saqlanayotgan shtat birliklari hisobidan iqtisod bo'lgan mablag'larni o'z vaqtida (hisobot davri yakuni bilan) tegishli budgetga qaytarilmasligi;

- mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasi razryadlarini va koeffitsiyentlarini hamda ustama to'lovlarini noto'g'ri qo'llash hisobiga ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yish;

- ishlamaydigan xodimlarning plastik kartochkalariga mablag' o'tkazib berish;

- byudjet muassasalarida ishlovchi xodimlar soxta diplom va malaka toifalari guvohnomalari bilan hamda nostrifikatsiyadan o'tkazilmagan chet el ta'lim muassasalari diplomlari bilan faoliyat yuritishlari va boshqa holatlar.

Bugungi kunda budget jarayonining barcha bosqichlarida budget intizomiga rioya qilinishi ustidan doimiy va samarali nazoratni ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni moliyaviy ta'minlashda budget xarajatlarining samaradorligini oshirish, ularning aniq maqsadli va manzilli bo'lishiga erishish eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu maqsadga erishish uchun budget intizomiga rioya etilishini yanada

⁵ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar.O'quv qo'llanma.T.:“IQTISOD-MOLIYA” 2008 y. 316 b.

kuchaytirish, budjet mablag’larining belgilangan maqsadlarda sarflanishi ustidan qattiq nazoratni ta’minalash juda muhimdir.

Dastlabki nazorat – budjet tizimida reja, dastur va smetalarni tuzish va tasdiqlash jarayonida budjet intizomiga rioya qilinishi shuningdek, qonunchilik talablari buzilishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.

Joriy nazorat – budjet ijrosi jarayonida maxsus organlar tomonidan tezkor amalga oshirilib, sodir bo’lgan muomalalarini qonuniyligi, pul mablag’larini oqilona sarflanishi, mulkiy qiymatliklar bo'yicha hisob ma'lumotlarini haqiqiy holatga mosligi, hisoblashuvlar holati va boshqalar nazorati amalga oshiriladi. Masalan buxgalteriya hisobining asosiy funksiyalaridan biri nazorat bo'lib, ko'p jihatdan buxgalteriya hisobi tuzilmasini to'g'ri tashkil qilinishiga bog'liq.

Keyingi nazorat – bu o'tgan moliya davridagi zarur hisob va hisobot axborotlarining qonuniyligini, byudjet intizomiga rioya qilinganligini aniqlash va faoliyat natijalarini umumlashtirish uchun amalga oshiriladi. Bunda budjet tashkiloti faoliyatini kompleks taftish qilinishi yoki moliyaviy audit o'tkazilishi mumkin.

Xulosa

Mazkur maqola orqali shuni xulosa qilib keltirish mumkinki, O’zbekiston Respublikasida nazorat ishlari samaradorligini ta’minalash, hamda budjet mablag’laridan foydalanish yuzasidan samarli moliyaviy nazoratni amalga oshirishning asosiy yo’nalishlari yuzasidan quyidagi asosiy xulosa, taklif va tavsiyalarimizni aks ettiramiz:

- davlat siyosatiga mos ravishda moliyaviy nazorat tizimini isloh qilib borishni ta’minalash;
- moliyaviy nazorat qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ko'zda tutilgan natijaga erishishni ta’minalashga xizmat qilishi lozim;
- moliyaviy nazorat organlarining budjet xarajatlarini optimallashtirishga qaratilgan yuqori samarali faoliyatini rag’batlantirish mexanizmini takomillashtirish;
- moliyaviy nazorat sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini amalga oshirish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi qonun (Yangi tahriri) O’RQ-404- son 13.04.2016 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
3. Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O’quv qo’llanma.- T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008. 260b.
4. Mehmonov S.U., Karimova Z.X., Tursunov A.S; “Bujet tizimi” Darslik, T.; “Iqtisod-moliya”, 2018 yil. 544 bet.
5. I.N.Qo’ziyev, SH.V.G’aniyev, A.S.Ramazonov. Budjet hisobi va nazorati: Darslik /; - T.: «Nihol print» OK, 2022. 632 b.

6. Internet saytlari:

www.gov.uz
www.mf.uz
www.tfi.uz

